

**ENDOMETRIOZ KELIB CHIQISHI, KLINIK KO'RINISHLARI,
DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASH USULLARI**

Qo'qon Universiteti Andijon Filiali

Davolash ishi 1-kurs talabasi

Obidova Ominaxon Avazbek qizi

obidova.ominaxon0405@gmail.com +998(94)876 64 44

Annotatsiya: Endometriozi — ayollar reproduktiv tizimining surunkali, yallig'lanishli va gormonga bog'liq kasalligi bo'lib, endometriy hujayralarining bachadon bo'shlig'idan tashqarida joylashishi va o'sishi bilan tavsiflanadi. Ushbu kasallik ko'pincha reproduktiv yoshdagi ayollarda uchraydi va kuchli og'riq sindromi, hayz siklining buzilishi hamda bepushtlikka olib kelishi mumkin. Endometriozi kelib chiqish mexanizmlari to'liq aniqlanmagan bo'lsa-da, genetik, gormonal, immunologik va tashqi omillar muhim rol o'ynaydi. Maqolada endometriozi turlari, klinik belgilari, zamonaviy diagnostika usullari, davolash yo'llari, asoratlari, oldini olish choralari hamda ovqatlanishning ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Endometriozi, bepushtlik, gormonal buzilishlar, laparoskopiya, CA-125, ginekologiya.

Kirish: Endometriozi zamonaviy ginekologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha reproduktiv yoshdagi ayollarning taxminan 10–15 foizi endometriozi bilan kasallangan. Kasallikning yashirin kechishi, kech tashxislanishi va tez-tez qaytalanishi uning ijtimoiy va tibbiy ahamiyatini yanada oshiradi. Endometriozi nafaqat jismoniy, balki psixoemotsional holatga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, ayollarning hayot sifati pasayishiga olib keladi. Ayniqsa, surunkali og'riq sindromi va bepushtlik ushbu kasallikning eng og'ir oqibatlaridan hisoblanadi. Shu sababli endometriozni chuqur o'rganish, erta aniqlash va samarali davolash bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi. Endometriozi haqida umumiy

tushuncha. Endometriozi — ginekologik kasallik bo'lib, unda endometriy hujayralari ular uchun noodatiy joylarda o'sadi. Endometriy normal sharoitda bachadon ichki qavatini tashkil etadi va hayz sikli davomida gormonal o'zgarishlarga javob beradi. Endometriozi esa ushbu hujayralar bachadon tashqarisida joylashib, xuddi normal endometriy kabi faoliyat ko'rsatadi. Endometriozi turlari. Genital endometriozi. Bachadon (adenomiozi). Tuxumdonlar. Bachadon naylari. Bachadon bo'yni va qin. Ekstragenital endometriozi. To'g'ri ichak. Qovuq. Kindik. O'pka. Nerv tizimi va boshqa a'zolar. Endometriozi faqat ayollarda uchraydi va uni o'rganish hamda davolash bilan ginekologiya shug'ullanadi.

Endometriozi kelib chiqish sabablari: Endometriozi kelib chiqish mexanizmlari hozirgacha to'liq aniqlanmagan bo'lib, bu masala ilmiy doiralarda hanuz munozarali hisoblanadi. Biroq kasallik rivojlanishiga yordam beruvchi bir qator omillar aniqlangan. Irsiy moyillik. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yaqin qarindoshlarida endometriozi aniqlangan ayollarda kasallik rivojlanish xavfi bir necha barobar yuqori bo'ladi. Bu holat genetik omillarning muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Gormonal disfunktsiyalar Endometriozi estrogeniga bog'liq kasallik hisoblanadi. Jinsiy gormonlar muvozanatining buzilishi, qalqonsimon bez va buyrak usti bezlari faoliyatidagi o'zgarishlar kasallik rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Reproktiv funksiyaning amalga oshmay qolishi ham gormonal fonni buzadi. Immunologik buzilishlar. Sog'lom immun tizimi endometriy hujayralarining noodatiy joylarda o'sishiga yo'l qo'ymaydi. Immunitet pasayganda esa ushbu hujayralar yo'q qilinmaydi va endometriozi o'choqlari shakllanadi. Jarrohlik aralashuvlari. Anamnezda abortlar, kesarcha kesish, bachadon bo'shlig'ida o'tkazilgan operatsiyalar endometriy hujayralarining tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Yallig'lanish kasalliklari. Surunkali ginekologik yallig'lanishlar kichik chanoq a'zolarida patologik jarayonlar rivojlanishiga olib keladi. Tashqi omillar. Noqulay ekologik sharoitlar, surunkali stress, yuqori jismoniy yuklama va surunkali kasalliklar organizmni zaiflashtiradi.

Endometriozi klinik belgilari: Endometriozi asosiy belgisi —

qorin pastidagi surunkali og'riqdir. Og'riqlar ko'pincha hayzdan oldin kuchayadi va uzoq davom etadi. Asosiy simptomlar. Qorin pastida doimiy yoki siklik og'riq. Jinsiy aloqa vaqtida og'riq. Defekatsiya va siyish paytida og'riq. Hayz ko'rishning ko'p va og'riqli bo'lishi. Hayzlararo jigarrang ajralmalar. Umumiy holat belgilar. Holsizlik. Ko'ngil aynishi. Bosh aylanishi. Subfebril tana harorati. Bepushtlik. Endometrioiz bilan og'rgan ayollarning 30–50 foizida bepushtlik kuzatiladi. Ayniqsa, tuxumdon va bachadon naylari zararlanganda homiladorlik ehtimoli keskin kamayadi. Ekstragenital shakllar. O'pka endometriozi — hayz paytida qon tuflash. Qovuq endometriozi — og'riqli siyish, gematuriya. Ichak endometriozi — defekatsiya paytida og'riq. Diagnostika usullari, endometrioiz tashxisi klinik belgilar va instrumental tekshiruvlar asosida qo'yiladi. Instrumental usullar. UZI — bachadon va tuxumdonlarni baholash, kolposkopiya — qin va bachadon bo'yni endometriozi, gisteroskopiya — bachadon bo'shlig'ini tekshirish, laparoskopiya — “oltin standart” usul, laborator tekshiruvlar, umumiy qon tahlili, CA-125 markeri — kasallik faolligini baholash

Davolash usullari: Davolash kasallik bosqichi, shakli va ayolning reproduktiv rejalariga bog'liq. Medikamentoz davolash, Nyaqv, Gormonal preparatlar, OKK, “Mirena” spiral, jarrohlik davolash, og'ir shakllarda laparoskopik yo'l bilan endometrioiz o'choqlari olib tashlanadi. Xavf va asoratlar, bepushtlik, endometrioid kistalar, bitishmalar, postgemorragik anemiya, nevrologik buzilishlar. Xavf guruhi, reproduktiv yoshdagi ayollar, irsiy moyilligi bor shaxslar, ko'p abort qilgan ayollar, gormonal buzilishlarga ega ayollar, oldini olish, yiliga 1 marta ginekolog ko'rigidan o'tish, sog'lom turmush tarsi, gormonal muvozanatni saqlash, abortlardan saqlanish, parhez. Endometrioizda ovqatlanish muvozanatli bo'lishi lozim. Ratsionning 50% sabzavot va mevalardan iborat bo'lishi tavsiya etiladi. Brokkoli va gulkaram estrogen almashinuvini me'yorlashtiradi. Jigarrang guruch, sabzi, lavlagi, qovoqcha va olma foydalidir. Gazli ichimliklar, qahva va kuchli choyni cheklash kerak.

Xulosa: Endometrioiz ayollar salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diruvchi surunkali kasallik bo'lib, erta tashxis va kompleks davolash muhim ahamiyatga

ega. Zamonaviy diagnostika va davolash usullari yordamida kasallik nazorat ostiga olinishi va ayolning hayot sifati yaxshilanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.N. Rahimov, M.X. Tojiyev. Akusherlik va ginekologiya
- 2.Sh.X. Karimova. Ginekologik kasalliklar
- 3.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi.
4. Ayollar reproduktiv salomatligi bo'yicha klinik protokollar
5. Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Ginekologiya fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma
- 6.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Endometriozi maqolasi
- 7.ToshkentWorld Health Organization. Endometriosis Fact Sheet